

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI MASHG'ULOTLARI VA ULARNI INNOVATSION

TASHKIL ETISH

Yaminova Sanobar Abdulla qizi
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha
ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli bo'lgan mashg'ulotning mazmuni va axamiyati xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarni ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilish o'tkazildi, tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilishlar o'tkazildi, qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Ushbu xujjat, birinchi navbatda, oilalarga bolaning to'laqonli rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasida, uni maktabda ta'lim olishga samarli tayyorlashda yordam berishni nazarda tutadi. U maktabgacha ta'limning mazmunini belgilaydi va mulk shaklidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini bolalikning qadr-qimmatini saqlab qolgan xolda barcha bolalarning tenghuquqligini va har bir bolaning individual rivojlanishini tadbir etishga yo'naltirilgan.

Yaqin vaqtgacha maktabgacha ta'lim muassasalarining odatiy bir hil yo'nalishdagi faoliyati, yangi texnologiyalarni joriy etish vositasida hilma –hillik kasb eta boshladi. "Ta'lim muassasasi" tushunchasi yangi "ta'lim tashkiloti" tushunchasi bilan almashtirildi. Zamonaviy hayot bizga buyurgan talablar, shuningdek maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti oldidagi oliy maqsadidir. Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va

nazoratini tashkil etish ham bor.¹Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi.

O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni o'rgatish ham ta'limda zamonaviy yondashuv sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axborotkommunikatsiya texnologiyalari haqida boshlang'ich bilimlarni o'yinlar va metodikalar orqali bilim berishlari mumkin. Misol uchun, bolaga kompyuter haqida tushuncha berish orqali unda tasavvurlarni shakllantirish mumkin. Pedagog-tarbiyachilar o'zlarining kreativ g'oyalari orqali ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda innovatsion metodikalarni qo'llashlari kerak. Bolalarda boshlang'ich bilimlarni puxta egallashlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni Pedagog-tarbiyachilar raqamli texnologiyalar asosida puxta egallashlari mumkin. Ta'limiy faoliyatlarning samaradorligini oshirish maqsadida kompleks ta'limiy faoliyatlar tashkil etish mumkin. Kompleks ta'limiy faoliyatlar bir ta'limiy faoliyatlar bir qancha ta'limiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, biror bir didaktik o'yinni boshqa didaktik o'yinlar bilan birgalikda ya'ni bir-birini to'ldirgan holda tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BMKn egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng qo'llanilayotgan loyixalar va tadqiqotlar faoliyati, ijodiy muammolarni hal qilish texnologiyasi (TRIZ), o'yin faoliyati vositasida bilim berish texnologiyasi, "Ta'lim jarayonida SINGAPUR texnologiyalari", Mariya Montessori metodikasi, Reggio pedagogikasi kabi metod va texnologiyalarning barchasi mohir pedagog va tarbiyachilar qo'lida "yumshoq ko'nikmalar" (Soft skills)ni rivojlantirish vositalariga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yaqin o'tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi dominant pozitsiyani egallash maktabgacha ta'limda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llaniladi. O'qituvchilar, kompyuterlar savodxonligini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin va bu faqat taqdimotlar va o'qitish roliklarini namoyish etish bilan cheklanmaydi. Mahalliy rivojlanayotgan dasturlarning ulkan tanlov sharoitida otaonalar yoshga to'liq javob beradigan narsalarni tanlash juda qiyin va ta'lim ehtiyojlari ta'minlanadi. Vakolatli fikrni olish bu masala faoliyat uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi yoshni rivojlantirish

¹. Bog'cha bolalari qanday tarbiyalanadi. (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/bogcha_bolalari_qanday_tarbiyalanadi) 10.03.2023r

bolalar, oilaviy vakillarning oilaviy vakillari bilan samarali hamkorlikni barpo etish uchun zaruriy narsalarni yaratadilar, ota-onalarning nazarida o'qituvchining nufuzini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxojayeva. N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, - 67-68 betlar
2. Shukur Po'atov. Ta'lim muassasasini ilmiy – metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. T.: “Yosh kuch” 2022, - 196 bet
3. Богоинова М.О., Николенко О.Р., Саврасова Н.В. Развитие элементарных навыков soft-skills у детей дошкольного возраста в условиях ДОО. Методические рекомендации для педагогов/ Богоинова М.О., Николенко О.Р., Петракова З.Е.- Армавир, 2022г – стр 4
4. Толстикова О.В., Савельева О.В., Иванова Т.В., Овчинникова Т.А., Симонова Л.Н., Шлыкова Н. С., Шелковкина Н.А. Современные педагогические технологии образования детей дошкольного возраста: методическое пособие. – Екатеринбург: ИРО, 2013. – стр 7
5. Bog'cha bolalari qanday tarbiyalanadi. (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/bogcha_bolalari_qanday_tarbiyalanadi) 10.03.2023г
6. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir (<https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-vamurabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi->)
7. Якубова, А. Б., & Палванова, У. Б. Проблемы здоровья связанные с экологией среди населения Приаралья мақола Научно-медицинский журнал “Авиценна” Выпуск № 13. Кемерово 2017г, 12-15.
8. Степанян, И. А., Изранов, В. А., Гордова, В. С., Белецкая, М. А., & Палванова, У. Б. (2021). Ультразвуковое исследование печени: поиск наиболее воспроизводимой и удобной в применении методики измерения косоугольного размера правой доли. *Лучевая диагностика и терапия*, 11(4), 68-79.
9. Суннатиллаев, А. С. (2020). ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚИЁФАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФОЛЬКЛОР-ЭТНОГРАФИК ЖАМОАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (13-2), 66-67.
10. Sunnatovich, S. A. (2022). FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA RAHBARLIK FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(C3), 46-51.
11. Асадова, Г. А. (2021). Обоснование комплекса мер по преодолению бесплодия у женщин с использованием методов вспомогательных репродуктивных технологий. *Интернаука*, (24-1), 44-45.
12. Асадова, Г. А. (2021). Актуальные проблемы бесплодия у женщин. In *Recent Scientific Investigation* (pp. 15-19).
13. Расулова, Н. Ф., Саттарова, З. Р., & Мирдадаева, Д. Д. (2022). ИЗУЧЕНИЯ ОСОБЕННОСТИ ЗДОРОВЬЕ СОХРАНЯЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ И САМООЦЕНКА ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ. *ноябрь-декабрь*, 105.

14. Якубова, А. Б., & Палванова, У. Б. Проблемы здоровья связанные с экологией среди населения Приаралья мақола Научно-медицинский журнал “Авиценна” Выпуск № 13. Кемерово 2017г, 12-15.
15. Степанян, И. А., Изранов, В. А., Гордова, В. С., Белецкая, М. А., & Палванова, У. Б. (2021). Ультразвуковое исследование печени: поиск наиболее воспроизводимой и удобной в применении методики измерения косога краниокаудального размера правой доли. *Лучевая диагностика и терапия*, 11(4), 68-79.